

## O'ZBEK MILLIY KASHTACHILIK SAN'ATI VA O'ZIGA XOS O'RNI

### Azimova Fotima Rahmonberdi qizi

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institute Dizayn libos yo'nalishi 3-kurs talabasi

#### ARTICLE INFO.

**Kalit so'zlar:** Kashtachilik, naqsh, vositalar, gulli bezaklar, igna, so'zana, milliy qadriyatlar, amaliy san'at.

#### Annotasiyasi

Maqolada kashtachilik amaliy san'atining tarixi, o'zbek milliy kashtasi, o'ziga hos xususiyatlari va o'zbek milliy zamonaviy liboslardagi o'rni haqida bayon etilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2024 LWAB.

“Ma'lumki har qaysi millatning amaliy san'ati inson ongli hayot kechira boshlagan davrlardan buyon uning atrof muhit bilan uyg'un va hamohang bo'lib yashashi, go'zallikni kashf etishga intilishi, rang-barang tabiat manzaralaridan zavq va hayrati natijasida yuzaga keladi. Shu ma'noda bu nodir san'at halqning aql-zakovati, noyob iste'dodi va azaliy qadriyatlarini bamisoli ko'zgudek o'zida yorqin aks ettiradi desak yanglishmagan bo'lamiz”. Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoevning nomoddiy madaniy merosimizni o'rganish, milliy hunarmandchiligimizni rivojlantirish t o'grisidagi ma'ruzalari asosida bir qator ustuvor vazifalar ta'kidlab o'tganlar. Shu sababdan nomoddiy madaniy merosimizni o'rganish va tanitish maqsadida farmonlar va qarorlar qabul qilindi. Jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va targ'ib qilishni rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” PQ-405-sonli qarorida “Respublika madaniyat muassasalari faoliyatini tashkil etish ilmiy-metodik markazi” negizida “Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti” tashkil etilganligi nazarda tutilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirining “Prezident qarori ijrosini ta'minlash to'g'risida” 29.12.2023-yildagi 286-sonli buyrug'ining 2-ilovasi bilan “Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti” strukturasi tasdiqlangan; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 25.12.2023 yildagi PQ405-son qarorining 1-ilovasi, Nomoddiy madaniy merosning alohida namunalarini ilmiy-amaliy asosda kompleks rivojlantirish bo'yicha bir qancha topshiriqlar xududiy o'rganishlar chora-tadbirlar rejasi asosida belgilab berilgan. Qaror asosida nomoddiy meroslarimizni asrab-avaylash, o'rganish va ustoz shogird an'anasi asosida yanada rivovlantirishni tadbir etish rejasi ishlab chiqilgan.

Kashtachilik — kashta tikish kasbi, amaliy san'atning qadimiy sohalaridan biri hisoblanadi. Kashta so'zi forscha so'z bo'lib, chizilgan va tortilgan degan ma'noni anglatadi, kashtachilikning asosiy vazifasi matolarga bezak berish va boyitish bo'lgan. Hozirgi kunda esa zamonaviy moda tendensiyasi olamida liboslarni badiiy bezatishda eng oldi o'rinni egallab kelmoqda. Kashtachilik tarixiga nazar solsak arxeologik topilmalarni o'rganish davomida qo'lda tikilgan va bezatilgan kiyimlar, etiklar va boshqa buyum topilmalari asosiga ko'ra miloddan avvalgi 30 000 yillikga to'g'ri keladi.

Kashta asosan qo'lda igna, ilmoqli igna, bigiz bilan yoki mashinada tikiladi. Qo'llanilgan matolari asosan bo'z, chit, satin, qimmatbaxo matolaradan esa shoyi, baxmal, movut, oyoq kiyim, pichoq qini, kamar, ot jabduqlari uchun esa charm matolariga tikilgan. Bu kabi matolar kashta tikish uchun eng qulay bo'lgan matolar hisoblanadi, sababi kashta tikish jarayonida matolar cho'zilmasligi kerak. Tikish jarayonida esa jun, ip, ipak (rangli), zig'ir tolali tabiiy va sun'iy (sintetik) tolalardan, metall (tilla, kumush)dan tayyorlangan iplardan foydalanilgan. Kashtada asosan tabiatdagi turli xildagi o'simlik, daraxt, naqshlar, handasiy shakllar, fazoviy jismlar, mevalar, hayvonlarni uslublashtirgan holdagi tasvirlari, hattoki baytlar va insonlarning qiyofalarini ham aks ettirishgan.

Kashtachilik hunari bilan deyarli barcha xalqlar shug'ullangan. Faqat xar bir xalq o'zining yashash joyi, iqlimi, tabiiy sharoiti va muhitiga ko'ra bir-biridan farq qilgan va vaqt o'tgan sari rivojlanib borgan. Kashtachilik taraqqiyotini Qadimiy Osiyo, Yevropa, madaniy yodgorliklari, adabiy manbalardagi kashtalar tasvirida, shuningdek, saqlanib qolgan kashtachilik na'munalari ham ko'rishimiz mumkin.

Davrlar davomida har bir san'atning rivojlanishida tasviriy san'atning o'rni va ta'siri doim katta bo'lgan, bu kashtachilik san'atiga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Misol uchun XI-asrga oid ingliz kashtalariga nazar solsak urush va jang holatlari tasvirlangan. XII-asr rus kashtasida esa Vizantiya ikona san'atining tasvirlarini ko'rish mumkin. Xitoyda esa shoyi matolari keng urufda bo'lgan va XIV-asrdagi kashtalarida ignali tasviriy ya'ni "syuxua" nomi bilan eng mashhur kashta asari manzara janrida ifodalangan,

XVIII-asrga kelib Yevropada aslzodalar kiyimini bezashda kashtalardan foydalanib tayyorlangan kashtachilik buyumlari keng tarqalgan. O'rta Osiyoda kashtachilik mahsulotlarining qadimiy xillari deyarli saqlanmagan. Muzeylarda faqat XIX-asrda tikilgan palak, so'zana, choyshab, kirpech, zardevor kabi badiiy buyumlari va kashtali kiyimlar saqlab kelinmoqda.

XIV-XV-asrlarga oid minatyura kitoblarida kashtachilikning Osiyoda ham qadimdan keng rivojlanganini ko'rsatadi. Manbalarda aytilishicha, Amir Temur saroyida yashagan ispan elchisi Rui Gonzales de Klavixo o'z esdaliklarida saroyda kashta bezaklarini tomosha qilganini yozgan. Behzod „Zafarnoma“ qo'lyozmasiga ishlagan "Temur taxtda" miniatyurasida (1467) kashtali chodirni ham aks ettirgan.

O'rta Osiyoda, ayniqsa, o'zbek, turkman, tojik ayollari o'rtasida kashtachilik juda keng tarqalgan. Kiyimlar oilada tayyorlangan, badiiy buyumlaridan so'zana, kirpech, dorpech, choyshab, oynaxalta, choyxalta va turli xildagi buyumlarini qo'l mehnatida tikib, xalqning o'z turmush tarzini go'zal qilish istagi natijasida yuzaga kelgan. Har bir honadon egasi o'zi uchun o'z qo'l mehnati yordamida ro'zg'or buyumlarini bezatib tayyorlagan.

Kashtachiligimiz san'ati nafaqat mamlakatimizda, balki barcha horijiy davlatlarda ham mashhur. O'zbek chevar kashtachi ustalarimiz qo'llari bilan uzoq vaqtda mehr va o'zgacha did bilan tikilgan san'at (so'zana, zardevor, gulko'rpa, choyshab va liboslar) asarlari Fransiya, Italiya, Yaponiya, Germaniya, Belgiya, Amerika, Hindiston kabi davlatlarning muzeylarining eksponatlari qatoridan joy olgan.

O'zbekiston hududidagi asosiy badiiy kashtachilik maktablari XVIII asr oxiri — XIX asr boshlarida oltita shaharda: Nurota, Samarqand, Shahrisabz, Toshkent, Farg'ona va Buxoroda shakllangan. San'at XX-asr boshlarida o'zining rivojlanish cho'qqisiga chiqdi, ammo bugungi kungacha hunarmandchilik madaniyatning bir qismi bo'lib qolmoqda. Kashta ustalarini choklari va kashta tikishi turli-tumanligi bilan ajralib turadi. Masalan Nurota, Buxoro, Samarqand kashtachilik mahsulotlari ko'proq yo'rma chok bilan tikiladi. Shahrisabzda esa yo'rma, kandaxayol, iroqi, va Toshkentda ko'proq bosma chok bilan tikilgan.

Ijtimoiy hayotda ro'y bergan o'zgarishlar kashtachilik an'alariga, mahsulotning turlariga ta'sir ko'rsatgan. Masalan, hozir bo'g'joma, dorpech, oynaxalta kabi ashyolar o'z ahamiyatini yo'qotdi, parangi, kaltacha kabi kiyimlarni faqat muzeylardagina uchratish mumkin. Aholi orasida bu kabi kiyim va buyumlarga talab kamaygani asosiy sababi hisoblanadi. Do'ppi, sumka, nimcha, kavush, kirpech, so'zana kabi badiiy buyum va ashyolar zamonaviy did bilan bezatilmokda, shakl va badiiy bezaklarida katta o'zgarishlar ro'y berdi.

O'zbek kashta ustalari buyum bezaklarida amaliy bezak san'atining boshqa turlaridagi naqshlardan ham andaza olganlar, kashtalarda o'simliksimon tasvirlar, shox, gulband, guldastalar ko'p uchraydi. Naqsh mujassamotida asosiy bezak matoning o'rtasida bo'lib, hoshiyalar qo'shimcha bezak hisoblanadi. Lekin hoshiya bezagi mahorat bilan ishlangan kashtalar ham ko'p. Ganchkorlik, yog'och o'ymakorligi, kandakorlik, naqqoshlikda uchraydigan islamiy gul (naqsh) lar kashtachilikda ham ko'p uchrashi, chizmakash (naqqosh)lar amaliy bezak san'atining turli sohalariga chizma (naqsh)lar tayyorlaganini ko'rsatmoqda. Naqshlarni qaysi turilaridan foydalansa ham, bizning o'zbek kashta ustalarimiz tomonidan yuqori did va ranglardan foydalangan holda aynan qo'l bilan tikish an'anasi saqlanib keng miqyosdagi hunarmandchilik tarzida bugungi kungacha rivojlanib kelmoqda.

O'zbekistonda kashtachilik san'ati rivojlanishiga yana bir asosiy sabab O'rta Osiyoga VIII-asrning boshlarida islom madaniyatining kirib kelishi va badiiy bezak va naqqoshlik san'atlarini yanada rivojlanishiga turtki bo'ldi. Masalan mahobatli rasmlardagi jonli mavjudotlar o'rni tabiat tasvirlari, o'simliksimon va geometrik elementlar ishtirokidagi naqsh namunalari egalladi. Arab yozuvlari o'rganilib, ular orqali bezakli (epigrafika) uslubi paydo bo'ldi.

Naqshlarni tahlil qilsak:

- kvadrat shakli - abadiylik, mustaxkamlikni, quyosh - hayot ramzini, zirk gullari (gulsafsar) osoyishtalik va uzoq umrni, olma- muxabbat ramzini, sher - mardlik, adolat va kuchlilik ramzi, humo qushi - baxt timsoli, yashil rang - ona zamin, havo rang - osmonimiz musaffoligini bildiradi. Yuqorida keltirilgan kashtachilik shakllari bugungi kunda ham o'zining ahamiyatini saqlash bilan birga turli zamonaviy ko'rinishda ifodalana boshlandi.

Hozirgi kundagi eng taniqli kashta ustalari Toshkent shaxrida Madina Kasimbayeva, Ilhom Davletov, Namanganda Latif Sadriiddinovlar kashtachilik san'atini rivojlantirish va tanitish uchun o'z xissalarini qo'shib kelmoqdalar.

Kashtachilik san'ati hozirgi kunda zamonaviy o'zbek milliy liboslarida juda katta rol o'ynamoqda. Oxirgi 10 yillik o'zbek milliy zamonaviy liboslarini kuzatsak, adras va atlas matolaridan ko'ra kashta naqshlari bilan bezatilgan kiyimlar urf (trend) darajasiga ko'tarildi. O'zbekistondagi taniqli dizaynerlar kolleksiyalariga qarasa, xar biri o'z didi, yo'nalishi bo'yicha milliy liboslarimizni bichimi va unga o'zgartirish kiritgan holda O'zbekistonda va horijiy mamlakatlarda shaxsiy namoyishlarini o'tkazib kelmoqdalar.

Taniqli moda dizaynerlari Lali Fashion, Moel Bosh, Noila Usmonova (Siluet style brendi), Dilnoza Umrzakova (Anor brend), Nigora Hashimova Kamoliddin behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida tahsil olgan Dildora Kasimova, Azucar Moreno va boshqalar o'zbek milliy liboslarini kashtachilik san'ati bilan uyg'unlashtirgan holda jahon podyumlarida yillar davomida tanitib kelmoqdalar.

Xulosa qilib aytish kerak, kashtachilik san'atida har bir millatning o'ziga xos eng ko'p qo'llaydigan naqshlari mavjud hamda ularni zamon talablari asosida rivojlantirish muhim hisoblanadi. Bu amaliy san'atni libos dizaynida ahamiyati juda katta va aynan san'at sohasida ta'lim oluvchi talabalarga o'zbek millatining anana va qadryatlariga mos holda kashtachilik san'ati bilan bog'liq bilim va ko'nikmalarini shakllantirib, rivojlantirish juda zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilishni rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-405-sonli qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirining “Prezident qarori ijrosini ta‘minlash to‘g‘risida” 2023-yil 29-dekabrda 286-sonli buyrug‘i.
3. Bo‘latov S.S. O‘zbek xalq amaliy-bezak san‘ati. O‘kuv uslubiy qo‘llanma. T. 1991y.
4. Xasanov E. G, Akromxo‘jaeva M, Akromxodjaeva R. «Kashtachilik» uslubiy qo‘llanma, Toshkent-2004 y.